

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVYERSITETI

MAMATQULOV B.X., SHAKIROVA N.A.

INVESTITSIYALAR

STATISTIKASI

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining “5A231401 – Statistika
(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligi magistrari
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

KIRISH

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli jabhalarida ulkan ahamiyatga molik yutuq va natijalarga erishib, jahon hamjamiyatida tobora yuksak mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida belgilab berilgan strategik maqsadlar va ularga bosqichma-bosqich erishish bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan vazifalarning izchil amalga oshirilishi muvaffaqiyatlar asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

2018- yil davomida davlat aktivlari sotilishi bo‘yicha ro‘yxatga olingan 1172 ta oldi-soldi shartnomasi bo‘yicha 240,9 million. AQSH dollari va 1846,8 milliard. so‘m miqdorida investitsiya kiritilishi nazoratga olingan. SHulardan, 18 ta shartnoma xorijiy investorlar bilan tuzilgan. Yuqoridagi shartnomalarga ko‘ra, bajarilgan investitsiyalar umumiy miqdori 130,6 million. AQSH dollari va 1009,0 milliard. so‘mni tashkil etdi. Investitsiya kiritish davrida 11950 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Amaldagi shartnomalarga ko‘ra, yil boshidan investorlar tomonidan 9,4 million. AQSH dollari va 353,3 milliard. so‘m investitsiya kiritilishi belgilangan bo‘lib, haqiqatda kiritilgan investitsiyalar hajmi 20,1 million. AQSH dollari va 447,0 milliard. so‘mni tashkil etdi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: - “Yoshlarimizga munosib ta‘lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.

Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog‘liqni ta‘minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘iz keksalar, umuman, ko‘makka muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi ma‘lumotlari